

UAGRO Market Maxfiylik bayonoti

1. Kirish

1.1. Sayt/mobil ilovaga tashrif buyuruvchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi to'g'risidagi Nizom (bundan buyon Nizom deb yuritiladi) 02.03.2026 sanasidagi tahririda "Vision Digital Groups" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi Xorijiy korxonada (keyingi o'rinlarda Jamiyat deb ataladi) qabul qilingan, maxfiy ma'lumotlarning xavfsizligi va bu saqlanishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hamda Jamiyat tomonidan Xaridor va/yoki Sotuvchi to'g'risida Uagro.uz domenlarida (keyingi o'rinlarda Marketpleys deb ataladi) har qanday qurilmadan va Jamiyat bilan har qanday shaklda aloqa qilishda olinishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarga nisbatan amal qiladi.

1.2. Mazkur Nizom Foydalanuvchi bilan kelishuv va Sotuvchilar bilan shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Tegishli Xaridor va/yoki Sotuvchi bunday hujjatlardan birini qabul qilish (akseptlash) yoki imzolash orqali quyida Maxfiy axborot sifatida belgilangan barcha ma'lumotlarni ushbu Nizom shartlariga muvofiq qayta ishlashga so'zsiz roziligini bildiradi.

2. Atama va ta'riflar

Maxfiy axborotni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash - maxfiy axborotni hisoblash texnikasi vositalari yordamida qayta ishlash.

Maxfiy axborotni blokirovka qilish - Maxfiy axborotni qayta ishlashni vaqtincha to'xtatish (Maxfiy axborotni aniqlashtirish uchun qayta ishlash zarur bo'lgan hollar bundan mustasno).

Axborot tizimi - axborotdan kelgusida foydalanish maqsadida uni saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun foydalaniladigan vositalar va usullarning o'zaro bog'liq majmui.

Yuridik shaxs to'g'risidagi axborot - elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan har qanday axborot, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda, yuridik shaxslarning nomlari, aloqa ma'lumotlari (pochta manzillari, elektron pochta manzillari, telefon raqamlari) va Jamiyat tomonidan Sotuvchilardan olinadigan boshqa axborot.

"Vision Digital Groups" MCHJ XK - "UAGRO MARKET" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xorijiy korxonasi (ro'yxat raqami Raqami: 3099580 STIR: 312741084. Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Nurobod MFY, 1-Islomobod ko'chasi, 31-uy.

Maxfiy axborot - qonun hujjatlariga va (yoki) Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq maxfiylik xususiyatlarining saqlanishi ta'minlanadigan axborot, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar.

Marketpleys - Internet tarmog'ida <https://uagro.uz/> manzilida joylashtirilgan veb-sayt, "UAGRO" ma'lumotlar bazasiga kirish imkonini beruvchi amaliy dastur (shu jumladan, mobil qurilmalar uchun). Ma'lumotlar bazasi tovarlarning, raqamli kontent mahsulotlarining potensial xaridorlari (iste'molchilari) uchun mo'ljallangan, tovarlar, raqamli kontent mahsulotlari to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot-ma'lumotnoma tizimidan iborat bo'ladi.

Firibgarlik harakatlari - aldash va (yoki) ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan g'arazli maqsadlarda sodir etilgan hamda Jamiyat, Sotuvchilar va (yoki) boshqa Xaridorlarning o'zgaralar mulkini (pul mablag'lari va boshqa moddiy boyliklarini) qonunga xilof ravishda egallashga qaratilgan harakatlari. Ushbu harakatlari O'zR JKning 168-moddasi bo'yicha jinoyat hisoblanadi va qonunda nazarda tutilgan tartibda ta'qib qilinadi.

Shaxsga doir ma'lumotlarni egasizlantirish - shaxsga doir ma'lumotlarning muayyan shaxsga doir ma'lumotlar subyektiga mansubligini qo'shimcha axborotdan foydalanmasdan aniqlash mumkin bo'lmay qoladigan harakatlar.

Maxfiy axborotni qayta ishlash - Maxfiy axborotni yig'ish, yozish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ajratib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), egasizlantirish, blokirovka qilish, o'chirish, yo'q qilishni o'z ichiga olgan avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan har qanday harakat (operatsiya) yoki harakatlar (operatsiyalar) majmui.

Shaxsga doir ma'lumotlar (SHM) - muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot.

Xaridor - Marketpleysdagi Sotuvchining internet-do'konida Tovarlariga buyurtmani rasmiylashtirish orqali Sotuvchidan masofadan turib Tovarlarini (ishni, xizmatni) buyurtma qilish yoki sotib olish niyatida bo'lgan yoki buyurtma bergan, sotib olayotgan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

Pochta bo'limi - "O'zbekiston pochatasi" aksiyadorlik jamiyatining pochta aloqasi obyektiga bo'lib, u orqali UAGRO MARKET marketpleysining Xaridorlariga Tovarlar beriladi.

Maxfiy axborotni taqdim etish - Maxfiy axborotni muayyan shaxsga yoki muayyan shaxslar doirasiga oshkor qilishga qaratilgan harakatlar.

Sotuvchi - tovarlarni Marketpleys orqali Xaridorga masofaviy usulda sotish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va Marketpleysda ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs.

Transchegaraviy buyurtma berilgan taqdirda "UAGRO MARKET" bilan tovarlarni UAGRO MARKET Marketpleysida joylashtirish to'g'risida vositachilik shartnomasini

tuzgan va tovarlarni UAGRO Market vitrinasi orqali O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslarga realizatsiya qiluvchi O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lmagan xorijiy yuridik shaxs Sotuvchi bo'lishi mumkin.

Maxfiy axborotni tarqatish - shaxsga doir ma'lumotlarni nomuayyan doiradagi shaxslarga oshkor qilishga qaratilgan harakatlar.

Shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish - mulkdor va (yoki) Jamiyat tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga uzatish.

Transchegaraviy buyurtma - Xaridor tomonidan norezident Sotuvchida UAGRO Market Marketpleys orqali rasmiylashtirilgan xalqaro yetkazib berilishi va bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovar buyurtmasi

Shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilish - shaxsiy ma'lumotlarni tiklash imkonsiz bo'lib qoladigan harakatlar.

3. Tartibga solish predmeti

3.1. Nizom Jamiyat va/yoki uning affillangan shaxslari, shu jumladan Vision Digital Groups kompaniyalar guruhi, Marketpleys bilan o'zaro munosabatlari jarayonida, shuningdek Jamiyat tomonidan Xaridorlar va/yoki Sotuvchilar bilan tuzilgan har qanday bitim va shartnomalarni bajarish jarayonida Xaridor va/yoki Sotuvchidan olishi mumkin bo'lgan barcha Maxfiy ma'lumotlarga nisbatan amal qiladi.

3.2. Marketpleysdan foydalanish (matnni ko'rish, o'qish, ma'lumot yuborish yoki yuklab olish) va shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etish orqali Xaridor va/yoki Sotuvchi shaxsiy ma'lumotlarni ushbu Nizomga muvofiq qayta ishlashga rozilik beradi.

3.3. Jamiyat shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish, tuzatish kiritish), ulardan

foydalanish, ularni tarqatish (shu jumladan uzatish), egasizlantirish, to'sib qo'yish, yo'q qilish yo'li bilan amalga oshiradi.

3.4. Jamiyat ushbu Nizom shartlariga muvofiq va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatishni amalga oshirish huquqiga ega.

4. Ma'lumotlarni qayta ishlash

4.1. Jamiyat Xaridorlar va/yoki Sotuvchilarga nisbatan qayta ishlaydigan maxfiy ma'lumotlar Xaridor va/yoki Sotuvchi Marketpleys bilan qanday munosabatda bo'lishiga va Xaridor va/yoki Sotuvchi Marketpleysga kirish uchun shaxsiy kabinetdan foydalanishiga qarab farq qilishi mumkin.

4.2. Xaridor ma'lumotlari:

- F.I.O.;
- Jinsi;
- Mobil telefon raqami;
- Tug'ilgan sanasi;
- Yetkazib berish manzili

4.3. Transchegaraviy buyurtmani amalga oshirish uchun zarur ma'lumotlar:

- Ism;
- Familiyasi;
- Otasining ismi (mavjud bo'lsa)
- Jinsi;
- Tug'ilgan sanasi;
- Tovarlarni yetkazib berish manzili;
- Mobil telefon raqami;
- Pasport raqami va seriyasi (ID-Card);

- PINFL;

O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar

4.4. Sotuvchilar ma'lumotlari:

- Yuridik shaxsning nomi;
- STIR;
- IFUT;
- PINFL;
- Bank rekvizitlari;
- Yuridik va pochta manzillari;
- Aloqa ma'lumotlari;
- Sotuvchilar vakilining F.I.O. va aloqa ma'lumotlari;
- Do'konlar (Mijozlar) tomonidan Foydalanuvchining o'z tovarlari va (yoki) xizmatlarini sotib olishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

4.5. Transchegaraviy buyurtmani bajarish uchun Sotuvchilardan olinadigan ma'lumotlar (xorijiy marketpleys talabi asosida):

- Yuridik shaxsning nomi;
- STIR (UIN = Xitoy STIRi);
- Bank rekvizitlari;
- Yuridik va pochta manzillari;
- Aloqa ma'lumotlari;
- Sotuvchilar vakillarining F.I.O. va aloqa ma'lumotlari;
- Do'konlar (Mijozlar) ning Foydalanuvchi tomonidan ularning tovarlari va (yoki) xizmatlarini sotib olish bo'yicha ma'lumotlari.

4.6. Avtomatik ma'lumot:

- Buyurtma holatlari;

- Buyurtma tarkibi.

4.7. Foydalanuvchi bilan kelishuv, Sotuvchi bilan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida Jamiyat tomonidan so'raladigan boshqa ma'lumotlar.

5. "Cookies" texnologiyalari

5.1. Marketpleysga tashrif buyurganingizda, cookie fayllaridan Xaridor va/yoki Sotuvchi haqidagi anonim statistik ma'lumotlar avtomatik ravishda olinadi, jumladan:

- ajarilgan amal turi (bosish, kursorni surish va boshqalar);
- harakatni bajarish sanasi va vaqti;
- Sahifa URL manzili (resursning yagona ko'rsatkichi);
- referrer (so'rov manbasining URL manzili);
- IP-manzil (statistikada IP-manzillar bilan ishlash imkoniyati yo'q);
- User-Agent (foydalanuvchi tomonidan resursga kirish uchun ishlatiladigan ilova haqida ma'lumot);
- ClientID (Cookie fayli bo'yicha brauzer identifikatori);
- Xaridor va/yoki Sotuvchi kompyuter ekranining aniqlik darajasi;
- faollashtiriladigan HTML-element sinfi;
- Xaridor va/yoki Sotuvchi tomonidan ko'rilgan, tanlangan xizmatlar haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan: xizmatlar/tovarlarning ichki identifikatorlari, xizmatlar/tovarlarning nomlari, xizmatlar/tovarlarning narxi;
- xizmatlar/tovarlar kartochkalarini ko'rish, xizmatlar/tovarlar kartochkalariga bosishlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Jamiyatning Marketpleysida rasmiylashtirilgan xizmatlar/tovarlar buyurtmalarining mazmuni, qiymati, bajarilish holati to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Marketpleysda shakllarni to'ldirish faktlari, shu jumladan ularni to'ldirishdagi xatolar to'g'risidagi ma'lumotlar.

5.2. Marketpleysdan foydalanish orqali Xaridor va/yoki Sotuvchi Jamiyat statistik ma'lumotlar va Cookie fayllardan ularni keyinchalik qayta ishlash uchun foydalanishi mumkinligiga va ularni tadqiqotlar o'tkazish, ishlar bajarish yoki Jamiyat topshirig'iga binoan xizmatlar ko'rsatish uchun uchinchi tomonga o'tkazishi mumkinligiga rozilik beradi.

5.3. Xaridor va/yoki Sotuvchi brauzer sozlamalarini o'zgartirish orqali Cookie fayllarni mustaqil ravishda boshqarishi mumkin. Foydalanuvchi sozlamalaridagi o'zgarishlar natijasida ushbu Cookie-fayllar bloklanishi Marketpleysning ayrim tarkibiy qismlarining ishlamasligiga olib kelishi mumkin.

6. Maxfiy axborotni yig'ish va qayta ishlash maqsadlari

6.1. Jamiyat Xaridorlar va/yoki Sotuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini faqat ular taqdim etilgan maqsadlarda qayta ishlaydi, xususan:

- Marketpleysga kirishga ruxsat berish;
- Xaridor va/yoki Sotuvchiga shaxsiy kabinetga kirishga ruxsat berish;
- Xaridor va/yoki Sotuvchiga Jamiyat va ayni paytda ko'rsatilayotgan xizmatlar to'g'risida ma'lumot taqdim etish;
- Marketpleysda xizmatlar/tovarlarni sotib olish bo'yicha buyurtmalarni qayta ishlash va rasmiylashtirish;
- Marketpleysdan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilish, xizmatlar/tovarlar uchun to'lovlarni amalga oshirishni tashkil etish;
- Xaridorni va/yoki Sotuvchini Jamiyatning huquqiy hujjatlari bilan tanishtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan Jamiyatga yuklangan vakolatlar va majburiyatlarni amalga oshirish;
- teskari aloqa o'rnatish, shu jumladan Xaridorlar va/yoki Sotuvchilarning bildirishnomalari, so'rovlari va arizalarini yuborish (qayta ishlash);
- xavfsizlikni ta'minlash va firibgarlikning oldini olish uchun Xaridor va/yoki Sotuvchining hududiy mansubligini aniqlash;

- Xaridorlar va Sotuvchilarning xohish-istaklarini hisobga olgan holda Jamiyat va Vision Digital Groups kompaniyalari guruhi tomonidan reklama-axborot materiallarini tarqatish va qo'shma marketing aksiyalarini o'tkazish;
- Xaridor va/yoki Sotuvchi tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlash;
- Marketpleysni doimiy ravishda takomillashtirish va yaxshilash;
- Jamiyat va Vision Digital Groups kompaniyalar guruhining yangi mahsulotlari, utilitlari va takliflarini yaratish.

6.2. Qo'shimcha maqsadlar yuzaga kelgan taqdirda yoki amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq, Jamiyat Maxfiy axborotni qayta ishlashga alohida rozilik so'rashi mumkin.

6.3. Ushbu Nizom ushbu Nizom kuchga kirgunga qadar ham, kuchga kirgandan keyin ham olingan Maxfiy axborotga nisbatan tatbiq etiladi.

6.4. Qayta ishlash maqsadlariga erishilgandan so'ng, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va ularni himoya qilish sohasidagi boshqa hollarda, Xaridor va/yoki Sotuvchi tomonidan taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlar yo'q qilinadi.

7. Maxfiy ma'lumotlarga ishlov berish muddati

7.1. Xaridor va/yoki Sotuvchi uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash maqsadlariga erishish uchun Jamiyatga zarur bo'lgan butun muddat davomida qayta ishlanishiga rozilik beradi.

7.2. Xaridor va/yoki Sotuvchi istalgan vaqtda O'zbekiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Nurobod MFY, 1-Islomobod ko'chasi, 31-uyiga yoki info@uagroteam.uz elektron manziliga yozma ariza yuborish orqali o'zining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishga bergan roziligini qaytarib olishga haqli.

8. Maxfiy axborotni yig'ish, saqlash, uzatish va boshqa turlarda qayta ishlash tartibi

8.1. Jamiyat Maxfiy axborotni undan ruxsatsiz yoki tasodifan foydalanishdan, shuningdek maxfiy axborotga nisbatan boshqa g'ayriqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilish uchun huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni qo'llaydi, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda:

- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov beruvchi axborot tizimlaridan foydalanishni cheklash;
- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov beruvchi axborot tizimlariga zararli dasturlar va dasturiy xatcho'plar joriy etilishining oldini olish;
- tarmoqlararo ekranlash;
- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov beruvchi axborot tizimlariga tajovuzlarni aniqlash va ularga chek qo'yish;
- shaxsiy ma'lumotlar axborot tizimlarining himoyalanganligini muntazam tahlil qilish, bunda ixtisoslashtirilgan dasturiy vositalar qo'llanilishini nazarda tutish;
- boshqa tadbirlar.

8.2. Jamiyat, shuningdek, Maxfiy ma'lumotlarni o'zining affillangan shaxslariga, shu jumladan Vision Digital Groups kompaniyalar guruhiga kiruvchi kompaniyalarga faqat ushbu Nizomning 6-bo'limida ko'rsatilgan maqsadlarda taqdim etishi mumkin.

8.3. Foydalanuvchi bilan kelishuv, Sotuvchilar bilan shartnoma bo'yicha muayyan xizmatlarni ko'rsatish uchun Jamiyat uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin. Agar bunday shaxslarga Maxfiy axborotdan foydalanish zarur bo'lsa, Jamiyat bunday foydalanish tegishli xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan darajada cheklanishini nazorat qiladi. Bundan tashqari, bunday tashqi xizmat provayderlari ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha barcha amaldagi qoidalarni mustaqil ravishda bajarishlari kerak. Bunday oluvchilar toifasiga quyidagi xizmat turlarini taqdim etuvchilar kiradi:

veb-tahlil, ma'lumotlarni qayta ishlash, reklama, elektron pochta orqali jo'natmalar, to'lovlarni qayta ishlash, buyurtmalarni bajarish va boshqalar.

8.4. Maxfiy axborotni qayta ishlash avtomatlashtirilgan vositalardan foydalangan holda ham, avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda ham amalga oshiriladi.

8.5. Jamiyat Marketpleysda tovarlar savdosini amalga oshiruvchi Sotuvchiga Sotuvchi tomonidan Xaridor oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda Xaridorning shaxsiy va boshqa ma'lumotlarini berishga haqli. Bunga buyurtmalarni qayta ishlash va bajarish, yetkazib berishni tashkil etish, kafolatli xizmat ko'rsatish, shuningdek, Xaridor va Sotuvchi o'rtasidagi kelishuvlarda nazarda tutilgan boshqa holatlar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi.

8.6. Jamiyat Marketpleysda ro'yxatdan o'tgan Sotuvchilar va Xaridorlarning ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish uchun davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarga taqdim etish huquqiga ega.

8.7. Xaridor va Sotuvchining maxfiy ma'lumotlari uchinchi shaxslarga berilmaydi, amaldagi qonunchilikni bajarish, UAGRO Market marketpleysining Xaridorlari va Sotuvchilari o'rtasidagi shartnoma majburiyatlarini bajarish va/yoki UAGRO Market manfaatlarini ko'zlab maxfiy ma'lumotlarga ishlov berish bilan bog'liq holatlar bundan mustasno.

9. Maxfiy axborot egasining huquqlari

9.1. Xaridor huquqlari:

- Marketpleysdagi Shaxsiy kabinetda o'zi haqidagi ma'lumotlarga mustaqil ravishda o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish;

- Marketpleysdagi Shaxsiy kabinetingizda taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlaringizni o'chirib tashlash. Shaxsiy kabinet va/yoki shaxsiy ma'lumotlarni o'chirib tashlash Marketpleysdan foydalana olmaslikka olib kelishi mumkin;
- so'rov bo'yicha Jamiyatdan o'zining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga taalluqli axborotni olish;
- Jamiyatda o'zining shaxsiy ma'lumotlari mavjudligi va ularning hajmi to'g'risida bilish;
- Jamiyatdan o'zining shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanishga ruxsat berish shartlari to'g'risida axborot olish;
- o'zining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishga berilgan rozilikni qaytarib olishi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- agar shaxsga doir ma'lumotlar to'liq bo'lmasa, eskirgan, noaniq, noqonuniy olingan yoki qayta ishlash maqsadlari uchun zarur bo'lmasa, Jamiyatdan o'z shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishni vaqtincha to'xtatib turishni talab qilish;
- o'z shaxsga doir ma'lumotlariga nisbatan huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari yuzasidan vakolatli davlat organiga yoki sudga murojaat qilish.

9.2. Sotuvchi huquqlari:

- Marketpleysdagi Shaxsiy kabinetda o'zi va o'z vakillari haqidagi Maxfiy ma'lumotlarga mustaqil ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;
- Marketpleysdagi Shaxsiy kabinetda taqdim etilgan Maxfiy axborotni olib tashlash. Shaxsiy kabinet va/yoki Maxfiy axborotni o'chirib tashlash Marketpleysdan foydalana olmaslikka olib kelishi mumkin;
- Jamiyatda o'zining Maxfiy axboroti mavjudligi va uning hajmi to'g'risida bilish;
- Jamiyatdan o'zining Maxfiy axborotidan foydalanishga ruxsat berish shartlari to'g'risida ma'lumot olish;

- Agar Maxfiy axborot to'liq bo'lmasa, eskirgan, noaniq, noqonuniy olingan yoki qayta ishlash maqsadlari uchun zarur bo'lmasa, Jamiyatdan Maxfiy axborotga ishlov berishni vaqtincha to'xtatib turishni talab qilish.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Jamiyat zaruratga qarab, shuningdek O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish va ularga ishlov berish sohasidagi amaldagi qonunlariga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda ushbu Nizomga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritishga haqlidir.

10.2. Xaridor va/yoki Sotuvchi istalgan vaqtda Nizomning amaldagi versiyasi bilan tanishib chiqishi mumkin. Jamiyatning sayti/mobil ilovasidan foydalanishni davom ettirgan holda, Xaridor va/yoki Sotuvchi Nizomga kiritilgan o'zgartirishlarga roziligini tasdiqlaydi.

10.3. Ushbu Nizom bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki tilda: o'zbek va rus tillarida tuzilgan.

Nashr sanasi 02.03.2026y